

. O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Samarqand davlat arxitektura kurilish instituti

“Kasbiy ta'lim” kafedrası

Didaktika fanidan

КУРС ИШИ

MAVZU Kafedrada bajariladigan diplom loyixalarining mavzulari, tarkibi, ularga,
quyiladigan talabalar va ularni rasmiylashtirish

Bajardi. Авазов О

Tekshirdi. Рахимов А

Samarqand- 2015 yil

MAVZU Kafedrada bajariladigan diplom loyixalarining mavzulari, tarkibi, ularga, quyiladigan talabalar va ularni rasmiylashtirish.

Reja:

- 1. Kafedrada bajariladigan diplom loyixalari.**
- 2. Diplom loihalarning tarkibi.**
- 3. Diplom loihalarga quyilgan talablar va ularni rasmiylashtirish.**

Tayanch tushunchalar: diplom loiha, diplom mavzular, diplom ishlarining mavzusi, rasmiylashtirish.

Maxsus kurs pedagogika fanining sohasi hisoblanib, ta'lim berish qonuniyatlarini o'rgatadi.

Maxsus kurs – мутахассислик fanlar bo'yicha ta'lim berishda maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalarni qo'llashni o'rgatadi.

Maxsus kurs o'qitish metodikasining asosiy vazifalari:

- ta'lim jarayoni elementlari tizimining bog'liqligini o'rgatish;
- o'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida ularda mehnatga ongli munosabatni tarkib topishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish yo'llarini o'rgatish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etishni o'rgatish.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni xamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'kidlanganidek, mamlakatimizda ikki boskichli (bakalavriyat, magistratura) oliy ta'lim tizimi joriy etilgan.

Bakalavriyat taxsili to'rt yildan iborat bo'lib, u Davlat attestatsiyasini topshirish, xamda diplom loyixasini himoyasi bilan nihoyasiga yetadi. Shuning uchun xam O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligining 2008 yil 31 iyuldagi №16/286 sonli qarori e'lon kilinib, unda Oliy ta'lim muassasalarida diplom loyixasini tayyorlash va himoya kilish "Nizomi" ishlab chikildi. Ushbu qarorda xar bir oliy o'quv yurti, jumladan, xar bir fakultet bakalavrlar tayyorlaydigan yo'nalishlar xususiyatlaridan kelib chikib, aniq, metodik tavsiyalar yaratish zarurligi kayd kilingan.

5140900 Kasb ta'limi (Bino va inshootlar qurilishi, Amaliy va tasviriy san'at yunalishlarida ta'lim olayotgan talabalar bajaradigan diplom loyixalari mazmunini kasb-xunar ta'limi amaliyoti extiyojlari bilan muvofiqligini ta'minlash maqsadga muvofikdir.

Mutaxassis-pedagog kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirishda kasb-hunar kollejlarida qulay psixologik-pedagogik muhit yarata olishga ham nazariy, ham amaliy jixatdan tayyor bo'lishini ta'minlash maqsadida, diplom loyihalar mavzusi, talabaning mavzu yuzasidan dastlabki kasbiy pedagogik tadqiqotlar o'tkaza olish mahoratini shakllantirish katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak mutaxassis pedagog (bakalavr) faqat tanlangan ixtisoslik doirasidagina emas, rahbar, tashkilotchi sifatida ham zarur bo'lgan sifatlarni, umumkasbiy fanlari bo'yicha ham diplom loyixasini bajarish jarayonida shakllantiriladi.

Shuning uchun tegishli o'quv rejasida umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha diplom loyihalarini bajarish va shu munosabat bilan diplom loyiha mavzusi, uni bajarish xaqidagi tavsiyalar yaratish eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

Diplom loyixasi tushunchasi

Diplom loyihasi tushunchasi talabalar bilimini yakuniy davlat attestasiyasidan o'tkazishning asosiy shakllaridan biri bo'lib, u so'nggi to'rtinchi boskichda bajariladi .

Diplom loyihasi talabalarning barcha fanlar bo'yicha olgan nazariy bilimlar va pedagogik faoliyatga oid egallangan amaliy ko'nikmalarining o'zaro uyg'unligini o'ziga mujassamlashtirgan ijodiy ilmiy ishdur.

Kasbiy ta'lim Bino va inshootlar qurilishi, Amaliy va tasviriy san'at yo'nalishidagi diplom loyihalar kasb va o'qitish metodikasi bo'yicha bajariladi.

Diplom loyihasining maqsad va vazifalari

Diplom loyihasini bajarib uni himoya qilish talaba uchun eng so'nggi mas'uliyatli boskich bo'lib hisoblanadi. Diplom loyihasini bajarishdan maqsad talabaning butun o'qish jarayonida olgan bilimlarini umumlashtirish kengaytirish va uni amalda tadbiq eta olish.

Shuningdek talabaning kasbiy pedagogik qobiliyatlarini tarkib topganligini namoyish qilish talabaning yaxlit pedagogik jarayonni tashkil etish malakasiga ega ekanligini ko'rsatish. Bunda talaba alohida fanlar bo'yicha kurs ishlarini hisob - grafik ishlarini bajarishdagi mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi .

Diplom loyihasining sifati va uni himoya qilish darajasi bo'lajak mutaxassisning ish faoliyatiga to'la tayyor ekanligini belgilaydi .

Diplom loyixasini mavzulari turli xil bo'lib ko'pincha ular buyurtmachi topshiriqlari va real loyihalar asosida bajarilib amalda tadbik etiladi .

Diplom loyihasida talabaning izlanuvchanligi, ilmiy tadqiqot elementlarining borligi, ixtirochiligi, qabul qilingan yechimlarini chuqur tahlil qila olishi yuqori baholanadi.

Ilmiy tadqiqot ishlari bajarishga moyilligi bo'lgan bitiruvchi talabalar kafedra qarori bilan bitiruv ishi o'rniga o'quv tadqiqot ishlarini ham bajarishlari mumkin.

Bu ishlarning sifati va ilmiy darajasiga qarab bitiruvchi DAK tomonidan magistraturada o'qishga tavsiya etishi imkoniga ega bo'ladi.

Diplom loyixasini bajarishga raxbarliq qilish

Diplom loyihasi rahbari etib kafedraning va institutning professor va dosentlari (hamkorlik shartnomasi asosida), kasb-xunar ta'limi bo'yicha tajribali mutaxassis-pedagoglar, ilmiy xodimlar hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi xududiy boshqarmalari va o'quv yurtlarining yuqori malakali pedagogik xodimlari tayinlanadi. Ularning nomzodlari mutaxassislik kafedrasi mudirining bildirishnomasiga asosan institut rektorining buyrug'i bilan tasdiklanadi.

Diplom loyixasi raxbarining vazifalari:

- diplom loyihasini bajarish uchun topshirik beradi;
- diplom loyiha ishni bajarish dasturini tuzadi va uni o'zi rahbarlik qilayotgan talabaga tavsiya qiladi;
- mavzuga oid texnik, ilmiy, pedagogik, metodik-texnik adabiyotlar ma'lumotlar hamda boshqa manbalar ro'yxatini tavsiya etadi;
- mavzuga oid muntazam ravishda maslahatlar o'tkazadi;
- talaba bajargan diplom loyiha ishning sifati va mazmuniga javob beradi;
- diplom loyihasi yakunlangach unga mulohaza (fikrnomasiga) yozib kafedra mudiriga topshiradi;
- zarurat bo'lgan hollarda ayrim bo'limlar bo'yicha maslahatchilarni tavsiya qilish va bu haqda kafedra mudiriga bildirishnoma yozishi mumkin.

Diplom loyihasini bajarishni tashkil qilish

Fakultet dekani 4-boskichning boshida talabalarni bitiruvchi kafedralarga taqsimlaydi.

Bitiruvchi talabalar (8 semestrda) maxsus fanni tinglaydi. Maxsus fan dasturiga diplom loyihasini bajarish uchun kerakli mavzular to'la hajmda kiritiladi.

Diplom loyiha mavzulari institut rektori tomonidan tasdiqlangandan keyin, rahbar bitiruvchi talabaga topshiriq varaqasini to'ldirib beradi.

Unda asosiy dastlabki ma'lumotlar har qaysi bo'limlarning taxminiy tarkibi va hajmi ishni bajarish bo'limlar bo'yicha maslahatchilarning familiyasi ko'rsatiladi.

Kafedra bitiruvchilariga maxsus ish joyi bo'lgan xona ajratiladi. Diplom loyihaga umumiy rahbarlikni talaba rahbari olib boradi. Kafedra salohiyati yetarli bo'lsa, ya'ni mutaxassis o'qituvchilar mavjud bo'lsa ular boshqa bo'limlar bo'yicha maslahatchi bo'lib tayinlanishlari mumkin. Maslahatchilar o'z maslahatlarini bitiruvchilarga maxsus xonada va ajratilgan vaqtda berishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talaba maslahatni haftasiga 2 marta olishi kerak. Buning uchun u oldindan tayyorgarlik ko'rish zarur (tushunmagan savollarni yozib olishi, maslahatchiga ko'rsatadigan materiallarni va xokazo).

Nazorat savollari

1. diplom loyixasining tarkibi nimalardan iborat?
2. maxsus kurs fanlarini o'qitish maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
1. ta'lim jarayoni tuzilmasiga nimalar kiradi?

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar.

1. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun me'yyooriy – huquqiy hujjatlar to'plami. O'MKHTM. Toshkent, 2005.
2. Olimov Q. T. va boshqalar. Ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2004.
3. "Qasbiy ta'lim" yo'nalishlari bo'yicha diplom loyixasini bajarish uchun metodik tavsiyalar. "Kasbiy ta'lim" fakulteti dekani dos. O'. T. O'sarov tahriri ostida Samarqand. 2010 y.
4. Mirsaidov K. J. Ixtisoslik fanlarini o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi. – Toshkent: Shiituvchi, 1996.
5. Xodjaboyev A. Xusanov L. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2007.

6. Abduqudusov O. O'rta maxsus, kasb – hunar ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish muammolari. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2002.

Qo'shimcha tavsiya etilgan adabiyotlar

7. Avliyoqulov N. X. "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari" Buxoro 2002 y.
8. Avliyoqulov N. X. "O'qitishning model tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari". Buxoro. 2002 y.
9. D. Tojiboyeva, A. Yuldoshev "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" Too'kent 2009 y.